

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ME'MORCHILIGI XUSUSIYATLARI

Boltayeva Farangiz Nuriddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida barpo etilgan me'moriy inshootlar, ularning o'ziga xos qurilish tarixi, me'morchiligi xususiyatlari haqida so'z boradi. Ikkinchi Renessans deya ataluvchi bu davr me'morchiligi xususiyatlari mavjud tarixiy adabiyotlar tahlili asosida, atroflicha yoritib berildi.

Kalit so'zlar: *Sohibqiron Amir Temur, Temuriylar davlati, an'anaviy me'morchilik, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi, Zangi ota majmuasi, saroy, maqbara, madrasalar, miniatyura va devoriy rassomlik.*

Vatanimiz o'z tarixida ko'plab davlatlar, sulolalar, tarixiy shaxslar va ular qoldirgan moddiy va ma'naviy meros, taraqqiyot va tanazzullarni boshidan kechirgan, Qadimgi Sharqning madaniy o'lkalaridan biridir. Bu davrlar tarixida o'zining shonli o'tmishini moziyga muhrlab ketgan davlatlardan biri bu XIV asr oxiri va XVI asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan, Amir Temur barpo etgan Turon mamlakatidir. Ushbu maqola orqali Amir Temur va temuriylar davri me'morchili va uning o'ziga xos xususiyatlariga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Amir Temur va temuriylar davrida an'anaviy me'morchilik shakl va uslublarini qaytadan tashkil qilinib, shakllantirildi. Ayniqsa, me'morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo an'anaviy me'morchiligining ham ajralmas qismi bo'lgan. Lekin XIV asrga kelib bino ichki va tashqi pardozida bu uslub alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar, XIV asr oxiridan keng tarqala boshlagan o'yma sirli naqshlar amalga tadbiiq etilishi O'rta Sharq xalqlari ijodiy tafakkurining katta yutug'i bo'ldi.

Sohibqiron Temur davrida shahar va shahardan tashqarida saroylar qurish, istirohat bog'lari yaratish keng tus oldi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda balki o'z mamlakatining boshqa shaharlarida ham qator hashamatli binolar qurdirdi. [Jumladan](#), Tabrizda machit, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda maqbara qurdirganligi shuning isbotidir [To'pchiyev U. 19-20-b.].

Amir Temur davrida ulug'vor machitlar barpo etilgan bo'lib, 1399-1402- yillarda bunyod etilgan Bibixonim jome' machiti shular jumlasidandir. Amir Temurning farmoniga binoan masjid tarhi (plani) ishlangan va 1399 yili bo'lajak

machitning poydevoriga birinchi g'isht qo'yilgan. Qurilishda Ozarbayjon, Hindiston va Erondan kelgan 200 dan ortiq usta, 500 dan ortiq tosh kesuvchi mehnat qilgan. Qurilishda 95 ta fil ham ishtirok etgan [www.wikipedia.org. internet sayti].

Bibixonim machiti katta to'rtburchak shaklidagi maydonni egallagan, uning atrofi esa devor bilan o'rab chiqilgan. To'rt burchagida minoralar qurilgan. Machit sharqqa qaragan juda katta peshtoqli darvoza bilan boshlanadi. Machit chor hovlisi atrofi ustunli ochiq ayvonlar bilan o'ralgan, ikki yon tomoni va o'rtasida uncha katta bo'lmagan peshtoq - gumbazli binolar qurilgan. Hovlining ichkarisida esa 40 metrli peshtoq va uning burchaklarida esa qirrali minora ishlangan. Shu peshtoq bilan machitni asosiy "muqaddas" yarim sferik gumbazli binosi boshlanadi [Shamsutdinov R..., 327-337-b.].

Machit ichki va tashqi tomonini bezagiga alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, moviy rang butun bino [koloritida hukmronlik qilib](#), uning yaxlit va ulug'vorligini ta'minlab go'yo uni cheksiz falak bilan musobaqalashayotgandek qilib ko'rsatadi. Qurilishda Sharq va G'arbning ustayu-naqqoshlari, me'moru-toshtaroshlari ishtirok etganligi yozma manbalardan ma'lum [Axmedov, 150-153-b.].

O'rta asr me'morchiligining haqiqiy durdonasi bu Temuriylar maqbarasidir. Amir Temur farmoniga binoan qurila boshlangan bu bino O'rta Sharq me'morchiligida muhim o'rinni egallaydi. Bino tantanavor monumentalligi va dekorativ qurilganligi bilan ajralib turadi. Bino sodda me'morchilik hajmlardan sakkiz qirrali asos, silindirik baraban va qirrali ko'k-moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilo. Uning ichki devorlari marmar bilan pardoqlangan o'yma naqsh hamda rangli va oltin suvi yuritilgan naqshlar bino ichki qismiga alohida fayz kiritgan.

Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligini "Shohi zinda" me'morchilik kompleksisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Afsonaviy Afrosiyob yon bag'riga joylashgan bu ansanbl XI-XII asrlarda bu yerda qurila boshlagan maqbaralar o'rnida barpo etilgan. Bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas sig'inish joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, shu yerda musulmonlar avliyosi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo u shu yerda tirilib yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha shu yerda yashashga qaror qilgan. "Shohi zinda" – "tirik podsho", "tirik shoh" degan ma'noni bildiradi [Mirzayev Sh. 69-75-b.]

Hozirgi Shohi zinda maqbara majmuasi XIV-XV asrlarning birinchi yarmida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan bo'lib, 1434-1435-yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ichkarida kirishga yaqin joyda XV asrning qo'sh maqbarasi bo'lib, unda gumbaz baland baraban ustiga joylashgan. So'ngra zinadan boshlanib, qator maqbaralar bir-biriga yaqin qurilgan. Bular Xo'ja Ahmad maqbarasi,

Tuman Og'a majmuasi, Shirinbeka Og'a majmualari bo'lib [Shamsutdinov R..., 327-337-b.], ularning xonalarida ilk bor o'yma naqsh ishlatila boshlagan.

Shohi zinda me'moriy majmuasidagi maqbaralar turli davrlarda qurilgan bo'lsa-da, hammasi yagona me'morchilik kompozitsiyasi sifatida idrok etiladi. Temur davrida qurilgan maqbaralar o'zining badiiy yechimining yuksakligi va yorqin rangdorligi bilan ajralib turadi. Sirli koshin va naqqoshlik san'ati butun ansamblga ajoyib fayz kiritib davr kishilarning go'zallik tushunchalarini ifodalaydi. *"Bu yer jannat bog'i, bu yerda baxt yulduzlari ko'milgan"* deb maqbara peshtoqlarining biriga yozilgan so'zlarda butun ansamblning g'oyaviy-badiiy va falsafiy mazmuni yechiladi [Zoxidov P. 41-b.].

Temur davrida O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida ham me'morchilik kompozitsiyasi va majmualari vujudga keldi. Shahrisabzdagi Oqsaroy (1380), Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkent viloyatida Zangi ota me'moriy obidalari shular jumlasidandir. Amir Temur farmoni bilan barpo etilgan Zangi ota majmuasi maqbara peshtoq, gumbazli ziyoratxona va go'rxonadan iborat bo'lib, naqshlar bilan bezatilgan. Bino me'moriy bezaklarida kufiy va suls xatida yozuvlar bilan birga tosh o'ymakorligi, rangli naqsh keng ishlatilgan [Shamsutdinov R, 327-337-b.].

Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy bezak san'ati o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Miniatyura va devoriy rassomlik san'atida nodir asarlar yaratildi. Haykaltaroshlik esa asosan bo'rtma tasvir tarzida namoyon bo'ldi.

Amir Temur davrda monumental rangtasvir nihoyatda rivojlandi. Bu davrda qurilgan saroy, qasr, machit va maqbaralar, zodagonlarning xonadonlari turli mavzudagi rasmlar bilan bezatilganligi haqida tarixchilarning yozma bayonlari saqlanib qolgan. Afsuski, bu binolar bizgacha yetib kelmagan yoki ayrim parcha va ko'chirmalarda saqlanib qolgan, xolos. Shularning o'zi ham davr san'ati to'g'risida tasavvur beradi.

Bu davrda devoriy rassomlik saroy va qasrlarni bezatishda keng ishlatilgan. Saroy devorlari murakkab syujetli kompozitsiyalardan tashkil topgan. Ularda Temurning olib borgan janglari, o'tkazgan bazmlari, o'zi va yaqinlarining portretlari tasviri, ov manzaralari aks ettirilgan. Tarixchi ibn Arabshohning so'zlariga qaraganda, Temurning jasoratini ko'rmaganlar rasmlar orqali bilib olishlari kerak bo'lgan. Bog'i Shamol saroyi devorlariga ham rassomlik asarlari bilan bezatilgan. Dilkusho saroyi devoriy rasmlarida esa Temurning Hindistonga yurishi tasvirlangan. 1400-yili Hirotida qurilgan bino devorlari ham bezakka boy bo'lib, u yerda Sohibqiron Temurning jangu-jadallari aks ettirilgan [Zoxidov P. 37-42-b.].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahrning ko'pgina shaharlari hunarmandchilik markaziga aylanadi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'cha-ko'ylar, bozor rastalari, timlar va toqlar (usti gumbazli bozor) paydo bo'ladi.

Ko'pgina shaharlarda zargarlik, miskarlik, kabi hunarmandchilik mahallalari bo'lgan. Bu davrda mamlakatning yirik shaharlari, xususan, Samarqand va Hirotida qurilish ishlari keng avj olib, binokorlarning roli oshib ketadi. Me'morchilik va u bilan bog'liq san'atning barcha turlari, shakl-shamoyillari zamon ruhiga mos tarzda rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov M.K. O'rta Osiyo me'morligi tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 1995.
2. Mirzayev Sh.R. Me'morchilik. 1,2,3,qismlar. Tafakkur. 2010.
3. To'pchiyev U. S. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. Uslubiy qo'llanma. Jizzax. 2024.
4. Zoxidov P.Sh. Me'mor olami. Toshkent. 1998.
5. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. Toshkent. 2010.
6. www.wikipedia.org. internet sayti.